



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

həm Bağdad gözəllərinin atəşin eşqi, həm də Çin səddindən Avropaya qədər, Şərqi Türküstandan Ərəbistanacan bütün dünyaya səpələnmiş qalib və məzlum türk ellərinin ələmi, nisgili əks etmişdi. Bura Füzuli şeiriyyətindəki özünəməxsus sufiyanə nüans və çalarları də əlavə etsək, mütəfəkkir aşiqin bədii aləmindəki çoxqatlılıq və çoxmənalılıq cahan söz sənətinin misilsiz və bənzərsiz hadisələrindən biri kimi dəyərləndirilməlidir: “Ey Füzuli, olubam qərqeyi-girdabi-cünun, Gör nə qəhrin çəkirəm dönə-dönə dövrənin,” - deyən dahi şair, həqiqətən də, öz mühitinin və zamanının fəvqündə duran, mənəviyyatı və dünyagörüşü ilə neçə-neçə əsrlərin dərslərini məharətlə ümumiləşdirib gələcək nəsillərə ötürməyi bacaran təkrarsız bir qələm sahibi idi.

Əgər həyatda və yaradıcılıqda başqa yol tutsaydı – bizi bugün heyrləndirən Füzuli olmazdı, onun 500 ildən bəri sevən könülləri titrədən, cuşə gətirən sehrli möcüzələri doğulmazdı. Demək, aşiq olmaq, aşiq kimi yaşamaq və həmişə aşiqanə düşünmək Füzulinin ilahi missiyası, həm də yerdəki təyinatı və taleyi olub. Eşqə – ilahi və insani eşqə pərəstis, aşiqanə duyum və düşüncə tərzı dahi şair şeiriyyətinin beşiyidir. Başqa sözlə, aşiqanə təxəyyül və təfəkkür manerası elə Füzuli sənətinin mahiyyəti, onun son dərəcə mükəmməl və mürəkkəb bədii yaradıcılığının estetik inikas üsulları və sistemi anlamındadır.

İstifadə edilmiş ədəbiyyat

1. Alisher Navoiy. “Ğaroyib üs-siğar”. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Uchunchi tom. “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1988.
2. Alisher Navoiy. “Navodir üş-şabob”. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. To‘rtinchi tom. “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1989.
3. Alisher Navoiy. “Badaye ül-vasat”. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Beshinchi tom. “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1989.
4. Alisher Navoiy. “Fəvayid ül-kibar”. Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma tomlik. Oltinchi tom. “Fan” nashriyoti, Toshkent, 1990.
5. Abdukodir Xayitmetov. Navoiy lirikasi. “O‘zbekison” nashriyoti. – Toshkent, 2015.
6. Yokubjon Ishokov. Navoiy poetikasi. “Fan” nashriyoti. Toshkent, 1983.
7. Füzuli M. Əsərləri. İki cildlik. I cild. Bakı, “Azərbaycan ensiklopoediyası” nəşriyyat-poliqrəfiya birliyi, 1995.
8. Cəfərov M.C. Füyulu düşünür. Bakı, “Elm və təhsil” nəşriyyatı, 2019.
9. Əliyev.S. Füzulinin poetikasi. Bakı, “Yazıcı” nəşriyyatı, 1986.

RENESSANS ADABIYOTIDA ETOLOGİK JANR TARAQQIYOTI

Qodirjon Ergashev

*O‘zFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori institutining
yetakchi ilmiy xodimi, filologiya fanlari doktori
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/WWYG6907*

Annotatsiya. *Maqola Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti muammosiga bag‘ishlangan. Muallif mavzuni Sebastian Brantning “Tentaklar kemasi”, Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub”, Erazm Rotterdamskiyning “Ahmoqlik maqtovi” asarlari misolida yoritgan. Maqolada bu asarlarning etologik janr rivojıdagi o‘rni va ahamiyati, mushtarak va farqli jihatları, ularda Renessans g‘oyalarining aks etishi singari masalalar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Renessans, janrlar, etologik janr, jamiyat axloqi, axloqni tasvirlash, tanqid, fosh qilish, ijtimoiy guruhlar, illatlar.*

DEVELOPMENT OF THE ETHNOLOGICAL GENRE IN RENAISSANCE LITERATURE

Abstract. *This article explores the development of the ethnological genre in Renaissance literature, focusing on its evolution through key works such as Sebastian Brant's Ship of Fools, Alisher Navoi's Mahbub ul-Qulub, and Erasmus of Rotterdam's Praise of Folly. Through a comparative analysis, the study examines the role and significance of these texts in shaping the ethnological tradition, highlighting their thematic and stylistic similarities and differences. Additionally, the article investigates the extent to which Renaissance ideas are reflected in these works, emphasizing their contribution to the intellectual and literary discourse of the period.*

Keywords: *Renaissance, genres, ethnological genre, social morality, depiction of morality, criticism, exposure, social groups, vices.*

1494-yilda Bazelda (Shveysariya) Sebastian Brantning “Tentaklar kemasi” asari nashr etildi. Oradan olti yil o’tib Hirotida ulug’ o’zbek shoir va mutafakkiri Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asari yaratildi. Navoiy asaridan to’qqiz yil keyin gollandiyalik buyuk adib va faylasuf Erazm Rotterdamskiyning “Ahmoqlik maqtovi” asari dunyoga keldi va 1511-yili Parijda nashr etildi. Birin-ketin yaratilgan bu uch asarda bir qator umumiy xususiyatlar mavjud. Bu, eng avvalo, ularning mavzusi, mazmuni va g’oyasida ko’zga tashlanadi. Har uch asarda ham jamiyat axloqi, jamiyatdagi turli qatlamlarning ijtimoiy, ma’naviy qiyofasi asosiy tasvir obyekti bo’lib xizmat qiladi. Har uch adib ham jamiyat axloqini ayovsiz tanqid qiladi, turli ijtimoiy guruhlar orasida tarqalgan illatlarni fosh etadi. “Tentaklar kemasi”, “Mahbub ul-qulub”, “Ahmoqlik maqtovi” – axloqni tasvirlovchi asarlar. Bunday asarlar adabiyotshunoslikda etologik janrga (rus adabiyotshunosligida nravopisatelniy janr ham deyiladi) nisbat beriladi [1 – 277-251]. Ayrim olingan konkret shaxs yoki personajning emas, balki mavjud ijtimoiy guruhlarining axloqini, qiyofasini tasvirlash, ularga xos salbiy xususiyatlar va illatlarni o’tkir tanqid ostiga olish yoki ular ustidan kulish hamda shu orqali jamiyat axloqini yaxshilash, tuzatishga intilishdan iborat mazmun va g’oyaning, maqsadning majudligi etologik asarlarning asosiy xususiyatidir. Etologik asarda muallif, eng avvalo, ana shu maqsadni ko’zda tutadi. Buni, jumladan, Brantning o’z asariga yozgan qisqacha muqaddimasidagi quyidagi so’zlarda ham ko’rish mumkin : “... donolikni, sog’lom fikrlashni va yaxshi xulq-atvorlarni rag’batlantirish hamda axmoqlikni, ahmoqona tasavvurlarni, ko’rlikni tag-tubi bilan yo’qotish uchun, bani basharning axloqini tuzatish maqsadida... Bazelda huquq doktori Sebastian Brant tomonidan bitildi” [2 – 25].

Bir davrda, bir janrga mansub, mavzusi, maqsadi va g’oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko’ra bir-biriga yaqin yuqoridagi singari asarlarning yaratilishi, ularda jamiyatdagi turli tabaqalarning ijtimoiy qiyofasi, ularga xos xususiyatlar tasvirining markaziy planga chiqishi, albatta, tasodifiy hol bo’lmay, o’sha davrdagi jamiyat taraqqiyotining xususiyatlari, insoniyat tarixi va madaniyatining porloq sahifalarini tashkil etuvchi ulkan madaniy ko’tarilish – Renessans hodisasi va uning ta’siri bilan bog’liq edi. Ma’lumki, Renessans adabiyotni misli ko’rilmagan yuksaklikka ko’tardi, xususan, bu davrda she’riyat dunyoni bilish va idrok etish usullaridan biri sifatida e’tirof etildi. Renessans ta’siri adabiyotning barcha jabhalarida, shu jumladan, janrlar tizimida, janrlar taaqqiyotida ham namoyon bo’ldi, tadqiqotchilarning bir qator poetik shakllarning yuzaga kelishini, mavjud janrlarning yangi mazmun bilan boyitilishini Renessans bilan bog’laganliklari bejiz emas [3 – 134]. Renessans adabiyotida insonni, uning kuchi, aqli, imkoniyatlarini tasvirlash tendensiyasi yetakchi mavqeni egalladi.

Hamma ishga qodir, barcha bilimlarni egallagan universal shaxslar, mislsiz jasoratlarni, ulug' ishlarni amalga oshiruvchi qahramonlar obrazlari yaratildi. Shu bilan birga asosiy e'tiborning insonga qaratilishi, uning barcha xatti-harakatlarining sinchkovlik bilan tahlil qilinishi jarayonida, tabiiyki, insonning zaif jihatlari, salbiy xususiyatlari, insonlar orasida ildiz otgan illatlar, jamiyat axloqining buzilishi ham ko'zga tashlanib qoldi va bularning tasviri ham adabiyotda o'z aksini topdi hamda ular tanqid qilindi, fosh etildi. Shu bilan bog'liq ravishda Renessans krititsizmi yuzaga keldi. Axloqni tasvirlovchi yoki etologik janrning mazkur davrdagi taraqqiyoti va yuqorida nomlari tilgan olingan asarlarning yaratilishi ana shu omillar bilan bog'liq edi. "Tentaklar kemasi", "Mahbub ul-qulub" va "Ahmoqlik maqtovi" bu janrning yorqin namunalari hisoblanadi.

Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyotida Sebastian Brantning(1457-1521) "Tentaklar kemasi" asari muhim o'rin tutadi. Asar mazkur janrning keyingi rivojida katta rol o'ynadi. Yevropa adabiyotida ushbu janrda ijod qilgan adib sifatida Tomas Murnerni(1475-1537) tilga olish mumkin. U "Tentaklar qasami", "Firibgarlar sexi" asarlarini yaratdi. Jahon adabiyotshunosligida "Narrenliteratur" – "Tentaklik adabiyoti" (ruschaga "Duraskaya literatura" deb o'girilgan) atamasi paydo bo'ldi va ilmiy muomalaga kirdi.

Navoiy va Erazm asarlaridan farqli o'laroq, Brant o'z asarini nasrda emas, she'riy shaklda yozgan. "Tentaklar kemasi"ni Navoiy asari bilan yaqinlashtiradigan jihati unda xuddi "Mahbub ul-qulub"dagi singari jamiyat axloqini tanqid qilishning pand-nasihat, didaktika bilan qo'shib olib borilishidir. Yana bir ana shunday jihat mualliflarning bir qator ijtimoiy illatlar, salbiy hodisalarga bo'lgan munosabatlarida yaqinlik va o'xshashlikning mavjudligida ko'rinadi. Masalan, "Tentaklar kemasi"ning ahmoq hukmdorlarga bag'ishlangan qismida Brant shunday yozadi (asar o'zbek tiliga tarjima qilinmagani uchun undan olingan parchalar ruscha tarjimada berildi):

Но горе странам, чей правитель,
Глупец и правды не ревнитель:
С утра совет там кутит, пьёт,
Не ведая других забот [2 – 129].

Yuqoridagi satrlar Navoiyning "Mahbub ul-qulub"da zolim podshohlar zikrida bitgan so'zlari bilan hamohangdir. Brant singari Navoiy ham bunday hukmdor huzurida ichkilikbozlik va maishatbozlik hukm surishini, shohning na haqiqat, na adolat bilan ishi yo'qligini ta'kidlaydi: "Boda seli chun bazmida tug'yon qilib, ul yel mulk ma'muralarini vayron qilib... Ko'p xizmat oz sahv bila olida nobud va ko'p haq va rost so'z ilayida nomavjud... Haq aning qoshida botil, xiradmand aning aqidasida johil [4 – 456].Xuddi shunday holni har ikki asardagi tilanchilar haqidagi qismda ham ko'ramiz. Navoiy ularni xaltasi, kadu va kachkuli bilan tasvirlaydi, gadolik qilib pul orttirishlarni qayd qiladi: "Kadu va kachkuli mamlu bangilar xotiridek mutanavvi' xayolotidin. Xaritasi to'la riyoiy sufiylar zamiridek mutalavvin xavotir xolotidin. Har diramkim tugub, g'assoldin o'zga kishi ochmoq mahol, Har siymkim yerga ko'mub, tufrog'din o'zga biro ani yemakka yo'q ehtimol"[4 – 476]. Brant ham ularning yelkasida xaltasi, qo'lida tayog'i bilan yurishi, tilanchilikni kasbga aylantirib olganliklari va shu orqali boylik orttirishlari haqida yozadi:

Сума на плечи, в руку клюшка-
И промышляет побирушка...
Живут они, всех нас колпача,

Меня с тобой куда богаче!
Так попрашайничество зло,
И превратилось в ремесло [2 – 171].

Brant qarimagan, kuchdan qolmagan, sog'lom, lekin tilanchilik qilib yurgan kishini uyatsiz, tekinxo'r deb ataydi:

Как часто человек не старый ,
Не хворый, а во цвете лет,
У коего ни права нет,
Ни маломальской нет причины
Не гнуть в работе честной спину,
А так бесстыжий тунеядец,
Кто жить бездельничая рад
Легко протягивает руку! [2 – 167].

Navoiy ham gadolarni "beg'ayrat va behayo" deb ataydi: "Tilanchi va gado ko'pragi beg'ayrat va behayo". Brant singari u ham yosh yigitlarning gadoyliq qilib yurishlariga e'tibor qaratadi va bundaylarga biron nima berish Tangri molini zoe' qilish bilan tengligini ta'kidlaydi: "Yigit gadokim, bel ura olur va o'tun tashimog'ni bilur, anga nima bergan Tengri molini zoe' qilur"[4 – 532].

Brant va Erazm asarlarini yaqinlashtiruvchi xususiyat esa ulardagi asosiy ramziy va allegorik obrazlardir. Brant asaridagi ramziy obraz tentaklar kemasi bo'lsa, Erazm asarida Axmoqlik (Moriya) allegorik obraz sifatida namoyon bo'ladi. "Ahmoqlik maqtovi"ning shakli o'ziga xos bo'lib, qahramonning monologik nutqi tarzida bitilgan. Bayon Ahmoqlik tilidan olib boriladi. Asar keskin, ayovsiz tanqid ruhida yozilgan. Yevropada Erazmga qadar hech bir adib jamiyatning turmush tarzini, jamiyat a'zolarining, har xil qatlamlar vakillarining xulq-atvorini bunchalik shafqatsiz tanqid ostiga olmagan edi. Bu jihatdan "Ahmoqlik maqtovi" Navoiyning "Mahbub ul-qulub"i bilan hamohangdir. Har ikki asarda ham Renessans krititsizmi bor bo'y-basti bilan namoyon bo'ladi. "Mahbub ul-qulub"da zolim shohlar, vazirlar, noiblar, yasovullar, din ahllari, savdogarlar, hunarmandlar, maktabdorlar, qo'shiqchilar, tilanchilar, rindlar, munajjimlar va yana ko'plab ijtimoiy guruhlar vakillari o'rtasida tarqalgan illatlar fosh etilsa, "Ahmoqlik maqtovi"da Yevropa jamiyatidagi qatlamlar: qirollar, saroy a'yonlari, dvoryanlar, ilohiyotchi olimlar, yepiskoplar, monaxlar, faylasuflar, kardinallar va boshqalarning qilmishlari tasvirlanadi.

Din ahllarining axloqi, qiyofalari tasviri "Mahbub ul-qulub"da ham, "Ahmoqlik maqtovi"da ham katta o'rin egallaydi. Bunda mualliflarning bir xil yo'l tutganlari ko'zga tashlanadi, ya'ni ular din ahli orasidagi guruhlarini alohida-alohida tasvirlaydilar. Navoiy sadrlarni o'z asarining birinchi qismidagi 6-faslda, shayxulislomlarni 11-faslda, muftilarni 13-faslda, qozilarni 12-faslda, imomlarni 19-faslda, muqriylarni 20-faslda, voizlarni 24-faslda zikr etadi. Qalandarlarni esa gadolar bilan bir faslga qo'shadi. Erazmning o'zi asarini boblarga bo'lmagan bo'lsa-da, nashrlarda u boblarga ajratilgan. "Ahmoqlar maqtovi"ning 53-bobida ilohiyotchi olimlar, 54-bobida monaxlar, 57-bobida yepiskoplar, 58-bobida kardinallar, 59-bobida papalar haqida so'z yuritiladi. German yepiskoplari alohida ajratilgan (60-bob).

Navoiy qalandarlar haqida kuchli bir nafrat bilan yozadi, ularning odamiylikdan yiroq mohiyatini fosh etadi: "Bular orasida o'zig'a qalandar ot qo'yg'on mal'un, odamiyliqdin mag'bun va dev va shayotin ollida mat'un. Insoniyat va musulmonliqdin

yiroq, to'ng'uz va ayig' odamiylig' da alardin yaxshiroq. Shaki tag'yiri bila odamiylig' din karona, po'stun evura kiymaklari hayvonlig' va sabuiyatdin nishona" [4 –476].

Erazm tomonidan ana shunday nafrat bilan tasvirlangan guruh monaxlardir. Asarda ular jirkanch bir qiyofada namoyon bo'ladilar. Muallif ularning savodsizligi, nodonligi va johilligini, ifloslik, qo'pollik ularga xos xususiyatlar ekanini ko'rsatadi. Shunga qaramay bu guruh o'zlaridan mamnun va odamlar ularni avliyo deb hisoblashlariga ishonadi: "Ular o'zlariga nisbatan shunday yakdil nafrat uyg'otganlarki, hatto monaxni tasodifan uchratib qolish ham yomon alomat hisoblanadi, lekin ular o'zlaridan mamnun bo'lib yuradilar. Birinchidan, taqvodorlikning eng oliy cho'qqisi barcha ilmlardan bexabar bo'lish, eng yaxshisi, umuman, o'qish-yozishni bilmaslik ekaniga ularning ishonchi komil. Yana ular cherkovlarda eshakning hangrashiga o'xshash ovozlari bilan o'zlariga tushunarsiz bo'lgan psalmalarni o'qir ekanlar avliyolarga mislsiz lazzat baxsh etyapmiz, deb o'ylaydilar. Ular boshqa tilanchilarga kattagina zarar yetkazib, aravalar va kemalarga to'lib oladilar". [5 –fasetia ru/node/1240]

Erazm ularning va'z aytishlari va minbardagi xatti-harakatlarini juda yorqin tasvirlagan: "Minbarda qadimgi notiqlarining usullari va yo'siniga kulgili tarzda taqlid qilib so'zlayotganlarida hech bir masxaraboz yoki maydon baqirog'i ularga teng kela olmaydi. Yo qodir Xudo, ular qo'llarini qanday silkitadilar-a, ovozlari qanday ko'taradilar, qanday qingshanglaydilar, yuzlarini qanday burishtiradilar, qanday ohanglarda uv tortadilar!" [5-fasetia ru/node/1240]

"Mahbub ul-qulub" da olimlar alohida bir faslda zikr etilmagan. Lekin asarning turli o'rinlarida bu toifa bilan bog'liq fikrlar uchraydi. Jumladan, tanbehlar qismida muallif fosiqli olim haqida yozadi. U mashaqqat chekib ilm orttiradi, lekin ilmiga amal qilmaydi. Navoiy uning orttirgan bilimi ham, kechirgan umri ham zoe' bo'lganini ta'kidlaydi:

Olimekim, ilmi erdi beamal,
Yo g'aniykim, molig'a buxli erdi yor.
O'ldilar yuz hasratu armon bila,
Elga bo'ldi ishlaridin e'tibor [4 – 514].

Boshqa bir tanbehda olim ilmning sharafini saqlashi lozimligi haqidagi mulohazalar bayon etiladi: "Olimeki, johilni muqobalaga kelturub, ilzom qilmog'i havas bo'lg'ay, o'ziga ushbu ihonat-o'q bas bo'lg'ay. Olim kerakki, o'z ilmining poya va miqdorin asrag'ay, gavharni imtihon uchun toshqa urmag'ay" [4 –530].

Erazm asarining bir bobi olimlarga bag'ishlagan. Bu "Ahmoqlar maqtovi" ning eng maroqli, ajoyib sahifalarini tashkil etadi. Muallif olimlarni kitob chiqarib abadiy shuhrat qozonmoqchi bo'lgan kishilar sifatida o'quchilarga taqdim etadi va shu maqsadda ishga kirishgan olimning mashaqqatli mehnatini tasvirlaydi. Olim uzoq yillar izlanadi, tunlari uxlamaydi, asarini qayta-qayta tuzatadi, o'chiradi, to'ldiradi va nihoyat nashr etadi, shunda ham o'z ishidan ko'ngli to'lmaydi. Bu vaqt ichida u nochorlikda yashaydi, o'zini hamma narsadan tiyadi, ko'z nuridan ajraladi, sog'lig'ini barbod beradi. Shuncha mehnat va mashaqqat evaziga uning olgan mukofoti esa arziyas-haqiqiy ilmning qadriga yetadigan bir nechta olimning e'tirofi. Shuning uchun ilmning bunday mashaqqatli yo'lini tanlovchi olimlar barmoqli bilan sanarli. Ko'pchilik boshqacha yo'l tutadi. Bu yo'ldan borgan qiynalib, izlanib yurmaydi. U xayoliga nima kelsa shuni yozaveradi, chunki u hech kim e'tiroz bildirmasligini, yozgan narsasida be'ma'nilik qancha ko'p bo'lsa, u ko'pchilikka, ya'ni ahmoqlar va johillarga shunchalik

ko'proq yoqishini yaxshi biladi. Kitobini o'qigan ikki-uch haqiqiy olimning unga nafrat bilan qarashlari uni mutlaqo tashvishlantirmaydi, zero shunday ulkan, baqiroq olomon ichida ularning ovozlari qayoqqa ham borardi! Mana shu o'rinda Erazmning asl maqsadi namoyon bo'ladi: ilmdagi haqiqiy ahvolni ko'rsatish, ilm ahli orasida mavjud bo'lgan illatlarni fosh etish. Erazmning yozishicha, ilmda yuqorida zikr etilgan "olim"ni ham yo'lda qoldiradiganlar bor. U-ku bema'ni bo'lsa ham har holda nimadir yozadi, bular esa hech narsa yozmaydilar, ularining nomlaridan e'lon qilingan ishlar aslida boshqalar tomonidan yozilgan. Asarda bu soxta olimlarning shuhratparastliklari, o'z sha'nlariga aytilgan maqtovlarni eshitib taltaygan holda nutq irod qilishlari tasvirlangan.

"Mahbub ul-qulub" ham ana shunday kuchli tanqidiy pafos bilan yozilgan. Muallif, eng avvalo, hukmdor tabaqalar: shohlar, vazirlar, noiblar, harbiy aristokratiya vakillarini ayovsiz fosh qiladi, xususan, ularning xalqqa nisbatan zulmi va adolatsizliklari, insoniylikka zid qilmishlari, tuban axloqiy qiyofalarini tasvirlaydi. Jamiyatdagi boshqa tabaqalar ham uning tanqididan quruq qolmaydi. Shu bilan birga Navoiy jamiyatning o'zgarishi, jamiyat axloqining tuzalishining imkoni bor, deb hisoblaydi. U odamlarga ishonadi. Undan keyin shu janrda asar yaratgan hamda u singari ijtimoiy tartiblarni va axloqni o'tkir tanqid ostiga olgan va jamiyat axloqining tuzalishiga mutlaqo umid bildirmagan Erazm bilan Navoiy o'rtasidagi prinsipial farq aynan mana shu nuqtada ko'rinadi.

Adabiyotlar

1. Г.Н.Поспелов. Теория литературы. – Москва, «Высшая школа», 1978. – С. 247-251.
2. Себастиант Брант. Корабль дураков. – Москва, «Художественная литература», 1984.
3. Я.В.Погребная. История зарубежной литературы. Средние века и Возрождение. – Москва, 2013. – С. 134.
4. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўлами.10 жилдлик. 9-жилд. – Т.: 2011.
5. Эразм Роттердамский. Похвала глупости.fasetia. ru/njde/1243.

NIZAMI GENCEVI VE ALİŞİR NAVAİ'NİN TÜR RUHU ESERLERİNİN VE ARAŞTIRICILARININ GÖZÜ İLE

Əlimuxtar Muxtarov

Amea Gəncə bölməsi Nizami Gəncəvi mərkəzi

direktor, filologiya üzrə fəlsəfə doktoru

nizamicenter1141@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/JPYM2248

Xulosa. Turk dunyosining ikki buyuk mutafakkiri Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy ijodi har bir davrda turkiy dunyo, turkiy xalqlar, ayniqsa, Ozarbayjon va O'zbekiston xalqlarining ma'naviy birligiga xizmat qilgan bebaho adabiyot asariga aylandi. Nizomiy Ganjaviy ijodida gullab-yashnagan, hamdardlik bilan oziqlangan turkiylik g'oyalari Alisher Navoiy ijodida o'zining yuksak cho'qqisiga chiqdi. Har ikki buyuk turk mutafakkirlarining adabiy asarlari jamiyatimiz uchun qanchalik muhim bo'lsa, bu asarlarning o'rganilishi va kelajak avlodlarga yetkazilishi ham birdek ahamiyatlidir.

Nizomiy Gencevin, Muhammed Harazmiy, Amir Alisher Navoiy, Foteh Sulton Mehmet, Imadiddin Nesimiy, Muhammad Fuzuliy va boshqa ko'plab ijodkorlarning asarlarida o'ziga

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAI'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO'BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o'rni	136
Nusratullo JUMAXO'JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g'azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo'qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta'sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G'iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an'analari	193
Islomjon YAQUBOV. O'zaro ta'sir, ijodiy mushtaraklik va o'ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O'zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo'ldosh PARDAYEV. Navoiy g'azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog'langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na't boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o'rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majoziylik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622